Bola va Zamon

Научно-популярный журнал детской и возрастной консультации

4 2025



Bo‘lajak tarbiyachilarda rivojlantiriladigan iqtisodiy madaniyatning tasnifi va funksiyalari

Влияние психологии здоровья студентов на образовательный процесс

Art-terapiya – samarali ijtimoiy moslashuv kafolati sifatida

Bola va Zamon

№ 4 • 2025

Tahrir kengashi a'zolari:
K. Sharipov, B.A. Musayev,
A. Xudayarov, E.G. Karimova

Tahrir hay'ati a'zolari:
Yaxnyayeva Muxayo Shurniyazovna
bosh muharrir;
Alimova Vasila Sattarovna
tibbiyot fanlari nomzodi;
Abdurasulova Qumri
yuridik fanlar doktori;
Ismailov Baxadir Islamovich
yuridik fanlar doktori;
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori;
Isroilova Nodira Achilbayevna
falsafa fanlari nomzodi;
Kamilova Nodira Gayratovna
psixologiya fanlari doktori;
Muminova Lola Raximovna
pedagogika fanlari doktori;
Musurmanova Oynisa Musurmanovna
pedagogika fanlari doktori;
Safayev Nuriddin Salixovich
psixologiya fanlari doktori;
Sharipova Dilyara Djumaniyazovna
pedagogika fanlari doktori;
Sharipova Madina Karimovna
tibbiyot fanlari doktori;
Xrul'nova Gelena Vyacheslavovna
psixologiya fanlari nomzodi;
Qodirov Botir Raxmonqulovich
psixologiya fanlari doktori;
Kamilov Farxod Oblakulovich
sotsiologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD);
Madjidova Dildora Abduxamidovna
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Jurnalning ushbu soni uchun mas'ul xodimlar:
Viktor Sattarov (mas'ul kotib);
Yelena Kalinina (bosh muharrir o'rinbosari);
Nargiza Qahharova (musahhih);
Amira Raximova, Doniyor O'rinboyev (fotograf).

Jurnal O'zR VM huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Prezidiumining 2006 yil 26 oktyabridagi 128/4-sonli qarori bilan **yuridik** fanlar bo'yicha, 2007 yil 29 martidagi 133/4-sonli qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha ilmiy daraja talabgorlari chop etishi lozim bo'lgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.
Ta'sischilar: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, "Sen Yolg'iz Emassan" Respublika bolalar jamoatchilik jamg'armasi.
Nashr O'zbekiston matbuot va axborot agentligida ro'yxatdan o'tgan. Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma raqami 0168; 2007-yil 11-yanvar.
ISSN 2181-5496
Tahririyat manzili: 100100, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Abdulla Qahhor ko'chasi, 34-uy.
Telefonlar:
+998-71-281-59-30; 281-50-18; 281-49-54 (faks)
El. pochta: bola-zamon@umail.uz
Veb-sahifa: www.rcsad.uz
Ijtimoiy tarmoqdagi sahifa:
www.facebook.com/bolavazamon
Obuna indeksi: 1127. Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.
Jurnal bosishga ruxsat etildi: 09.12.2025.
Chiqarilgan sanasi: 30.12.2025.
Buyurtma: № 90.
Adadi: 100 nusxa. Bahosi: "Kelishilgan narxda".
Jurnal MCHJ "PRINT OWL" bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Sadoqat ko'chasi, 7-uy. Tel.: +998-97-330-78-77.

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz yozilmaydi.
Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

PSIXOLOGIYA VA TIBBIYOT • ПСИХОЛОГИЯ И МЕДИЦИНА

- Xorij multfilmlarining o'zbek bolalarida milliy o'zlikni shakllanishiga salbiy ta'siri masalalari 2
- Влияние психологии здоровья студентов на образовательный процесс 4
- Aholi migratsiyasi xorijiy olimlar talqinida 8
- Art-terapiya – samarali ijtimoiy moslashuv kafolati sifatida 11
- O'smirlarning destruktiv axborotlarni idrok etishini metodologik qirralari 14
- Psixologik xizmatning kasbiy zo'riqishni oldini olishdagi o'rni 17
- Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodkorligini rivojlantirish uchun tayyorlangan dasturining samaradorligi 20

PEDAGOGIKA VA TA'LIM • ПЕДАГОГИКА И ОБРАЗОВАНИЕ

- Развитие эмпатии у школьников как средство формирования толерантности и взаимопонимания 22
- Raqamlashtirish davrida ta'lim sifatini oshirish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv transformatsiyasi 25
- Влияние профессиональной среды на развитие личностных характеристик воспитателей дошкольных образовательных организаций 28
- Ta'lim sifatini oshirishda o'quvchilar o'zlashtirish darajasining psixologik ahamiyati 32
- Развитие критического мышления как ключевой компетенции современного воспитателя 35
- Bo'lajak tarbiyachilarda rivojlantiriladigan iqtisodiy madaniyatning tasnifi va funksiyalari 38
- O'qituvchi uslubiy malakasini rivojlantirish vositalari 41
- Bolani musiqiy shakllanishida oila bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi mexanizmi 44
- Эволюция университета в меняющемся мире: историко-теоретический анализ моделей 1.0–5.0 46
- Talabalarda o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirishda oilaviy muhitning o'rni 51
- Tangram – tafakkur ila yaralgan san'at va aql uyg'unligi 54

MAXSUS PEDAGOGIKA • СПЕЦИАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА

- O'quv-ijtimoiy faoliyat jarayonida boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarida bilish faolligini rivojlantirish 56
- Koxlear implantli bolalarni ommaviy maktab ta'limiga tayyorlashda olib boriladigan korreksion ish yo'nalishlari 58
- Inklyuziv ta'lim jarayonida maxsus pedagog faoliyatining o'ziga xosliklari 61
- Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ish bosqichlari va komponentlari 64
- Inklyuziv ta'limda bolalarning psixik rivojlanishi bo'yicha farqli xususiyatlarini aniqlash masalalari 69

PSIXOLOGIYA VA SPORT • ПСИХОЛОГИЯ И СПОРТ

- O'spirin futbolchilarda jamoaviy o'ziga ishonchni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari 72

Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ish bosqichlari va komponentlari

Xurshidaxon RAXIMOVA

Qo'qon davlat universiteti "Maxsus pedagogika" kafedrasi dotsenti, PhD

Tayanch so'zlar: koxlear implant, korreksion, rivojlantirish, ish, surdopedagogika, logopediya, eshitish, differensiatsiya, nutq, faollik, audiopedagogika, reabilitatsiya.

Annotasiya / Аннотация / Abstract

UZ. Ushbu maqolada koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning bosqichlari va komponentlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda diagnostika va tayyorgarlik, implantatsiyadan keyingi eshitish-moslashuv, eshituv differensiatsiyasi va nutqiy faollikni rivojlantirish, kommunikativ va ijtimoiy integratsiya kabi asosiy bosqichlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, audiopedagogik, logopedik, psixologik-pedagogik va oila bilan integratsion ishlarning pedagogik ahamiyati ta'kidlangan. Maqola zamonaviy nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida koxlear implant foydalanuvchisi bo'lgan bolalarning eshitish va nutqiy rivojlanishini tizimli qo'llab-quvvatlashning metodik jihatlarini yoritadi.

RU. В данной статье научно анализируются этапы и компоненты коррекционно-развивающей работы с детьми, использующими кохлеарные импланты. Исследование охватывает основные этапы: диагностика и подготовка, послеимплантационная слуховая адаптация, развитие слуховой дифференциации и речевой активности, а также коммуникативная и социальная интеграция. Особое внимание уделяется педагогической значимости аудиопедагогической, логопедической, психолого-педагогической работы и интеграции с семьей. Статья раскрывает методические аспекты системной поддержки слухового и речевого развития детей с кохлеарными имплантами на основе современных теоретических и практических исследований.

EN. This article provides a scientific analysis of the stages and components of corrective and developmental work with children using cochlear implants. The study examines key stages including diagnostics and preparation, post-implant auditory adaptation, development of auditory differentiation and speech activity, as well as communicative and social integration. The pedagogical significance of audiopedagogical, speech therapy, psychopedagogical work, and family integration is emphasized. The article highlights methodological approaches for systematic support of auditory and speech development in children with cochlear implants based on contemporary theoretical and practical research.

Zamonaviy tibbiy va texnologik yutuqlar eshitishida chuqur nuqsoni bo'lgan bolalar uchun sezilarli darajada samarali vositaga aylangan koxlear implantatsiya tibbiy-texnologik nuqtayi nazardan inqilobiy yechim bo'lishiga qaramay, bolaning mustaqil eshitish va nutqiy rivojlanishini kafolatlamaydi. Implantatsiya natijasida eshitish signallari miyada qayta ishlanish imkoniga ega bo'lsa-da, bu resurslardan samarali foydalanish faqat puxta rejalashtirilgan, bosqichma-bosqich va tizimli korreksion-rivojlantiruvchi ishlar orqali amalga oshiriladi.

Shu bois, koxlear implantli bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar – logopedlar, surdopedagoglar, audiopedagoglar va psixologlar tomonidan olib boriladigan reabilitatsion jarayon kompleks, individual va tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi shart.

Koxlear implantatsiya zamonaviy tibbiy-texnologik yutuqlarning eng muhim natijalaridan biri bo'lib, eshitishida chuqur nuqsoni bo'lgan bolalar uchun sezilarli imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, implantatsiya bolaning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishini o'z-o'zidan kafolatlamaydi. Shu sababli pedagogik nuqtai nazardan yangi va murakkab vazifalar paydo bo'ladi: implantatsiyadan keyingi davrda eshituv va nutqiy funksiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, bolaning shaxsiy integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirish va psixologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash [2].

Koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsion ishlar quyidagi sosiy bosqichlarga bo'linadi:

1 Diagnostika va tayyorgarlik bosqichi. Mazkur bosqich reabilitatsion jarayonning tayanch nuqtasi hisoblanadi va bolaning jismoniy, psixik, eshituv va nutqiy rivojlanish darajasini chuqur baholashni o'z ichiga oladi. Diagnostika kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladi va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- **Audiologik tekshiruvlar:** audiometriya, timpanometriya, otoakustik emissiya yordamida eshituv qobiliyati va eshitish analizatori holati baholanadi.
- **Psixodiagnostik metodlar:** bolaning moslashuv qobiliyati, emot-

sional barqarorligi va idrok faoliyati aniqlanadi.
- **Logopedik tashhis:** artikulyasion apparat holati, fonematik eshituv, passiv lug‘at hajmi va nutqiy o‘rganish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ushbu bosqichda oilaviy konsultatsiyalar alohida e’tibor talab qiladi. Ota-onalarga eshitish nuqsonining mohiyati, implantdan keyingi ehtimoliy o‘zgarishlar va reabilitatsiya jarayonida ularning faol ishtiroki bo‘yicha psixologik-pedagogik maslahatlar beriladi. Oilaning psixologik tayyorgarligi va motivatsiyasi shakllanishi reabilitatsiya samaradorligi uchun muhim omildir.

2 Implantatsiyadan keyingi dastlabki eshitish-moslashish bosqichi. Bu bosqich bolaning implant orqali qabul qilayotgan yangi eshituv tajribasiga moslashish jarayonini o‘z ichiga oladi. Eshitilayotgan signallar tabiiy akustik tovushlardan tubdan farq qilganligi sababli bosh miya bu signallarni tanib olish va talqin qilishga o‘rganadi.

Mazkur bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

- sensor-motorik faollikni rag‘batlantirish: tovushga bosh burish, nigohni jamlash, sezgirlikni faollashtirish;
- tovushlarga emotsional javob shakllantirish: ajablanish, qiziqish, kayfiyatdagi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish;
- tovush manbaini aniqlash va lokalizatsiyalashga o‘rgatish;
- eshituv e’tiborini rivojlantirish: chaqiriqqa javob, ismga munosabat.

Ushbu bosqichda bolada eshituvga asoslangan motivatsion maydon shakllantiriladi va implantdan foydalanishga ijobiy munosabat mustahkamlanadi.

3 Eshituv differensiatsiyasi va nutqiy faollikni rivojlantirish bosqichi. Koxlear implantatsiyadan so‘nggi reabilitatsiya jarayonining markaziy yo‘nalishi bolalarning eshituv imkoniyatlarini funksional darajada faollashtirish, tovushlarni idrok etish va nutqiy faoliyatga jalb qilish orqali ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eshituv differensiatsiyasi va nutqiy faollikni shakllantirish bolalarda nutqiy kommunikatsiya, ijtimoiy muomala va kognitiv jarayonlarning rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.



Koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsiyaning markaziy bosqichi bolaning eshituv imkoniyatlarini faollashtirish va nutqiy ifoda ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu davrda bola dastlab tovushlarning mavjudligini farqlashni o‘rganadi, keyinchalik esa ularning semantik va fonetik mazmunini tanib olishga o‘rgatiladi [1].

Asosiy ish yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **fonematik eshituvni rivojlantirish** – yaqin tovushlarni farqlash, fonema va fonetik birliklarni eshitish orqali ularni tanish va idrok qilish;
- **passiv lug‘atni faollashtirish** – atrof-muhitga oid so‘zlarni eshitish, tanib olish va tushunish orqali lug‘atni kengaytirish;
- **nutqiy ifoda** – tovushlardan so‘z, so‘zlardan oddiy iboralar va keyinchalik gaplar tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- **talaffuz va artikulyatsiyani rivojlantirish** – eshitilgan nutqni to‘g‘ri talaffuz qilish, og‘zaki nutq apparatini boshqarish orqali nutqiy aniqlikni oshirish.

Mazkur bosqichda logopedik mashg‘ulotlar, differensial ovozli o‘yinlar, multimodal eshituv vositalari va interaktiv pedagogik metodlar asosiy metodik platformani tashkil qiladi.

4 Kommunikativ va ijtimoiy integratsiya bosqichi. Bu bosqichda bola o‘zlashtirgan eshituv va nutqiy ko‘nikmalarini real hayotiy muloqot holatlarida mustahkamlashga o‘rgatiladi. Shu tariqa uning jamiyatga integratsiyalashuvi va inklyuziv muhitga tayyorlanishi ta’minlanadi.

Asosiy vazifalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **dialogik va monologik nutqni qo‘llash** – kundalik hayotiy holatlarda nutqiy faol bo‘lish, savol-javoblar va muloqot jarayonlarida ishtirok etish;
- **o‘zaro ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish** – o‘yinlar, jamoaviy faoliyatlar, maktabgacha va maktab muassasalaridagi muomala;
- **o‘z-o‘zini anglash va baholash** – bola o‘z holatini, his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganadi;
- **inklyuziv ta’limga tayyorgarlik** – bola maxsus maktabdan umumta’lim muassasasiga bosqichma-bosqich moslashtiriladi.

Ushbu bosqichda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy

1-jadval. Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan reabilitatsion ishlarning asosiy bosqichlari

Bosqich nomi	Asosiy maqsad	Amalga oshiriladigan ishlar	Ishtirok etuvchi mutaxassislar
Diagnostika va tayyorgarlik bosqichi	Bola holatini kompleks baholash, oilani reabilitatsiyaga tayyorlash	Audiologik, psixologik, logopedik tashhis; ota-onalar bilan suhbatlar, ma'lumot berish	Audiolog, surdopedagog, psixolog, logoped
Eshitish-moslashuv bosqichi	Eshitish apparati orqali berilgan signallarga organizmni moslashtirish	Sensor-motorik reaksiya, tovush manbasini aniqlash, tovushlarga emotsional javoblar	Audiopedagog, logoped
Nutqiy va eshituv differensiatsiyasi bosqichi	Tovushlarni farqlash, so‘zlarni eshitish orqali tushunish, nutqiy faollikni shakllantirish	Fonematik eshituv, leksik va grammatik mashqlar, og‘zaki nutq ustida ishlash	Logoped, surdopedagog
Kommunikativ va ijtimoiy integratsiya bosqichi	Muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash, inklyuziv muhitga tayyorlash	Dialogik nutq, ijtimoiy rolli o‘yinlar, mashg‘ulotlar, maktab muhitiga tayyorlash	Psixolog, logoped, sinf rahbari, inklyuziv pedagog

rolli o‘yinlar, mashg‘ulotlar va individual rivojlantiruvchi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi *(1-jadval)*.

Mazkur bosqichlar o‘zaro ketma-ketlikda, lekin har bir bola ehtiyojiga qarab moslashuvchanlik tamoyiliga asoslangan holda amalga oshiriladi. Koxlear implant foydalanuvchilari uchun korreksion-reabilitatsiya nafaqat eshituvning tiklanishini, balki bolaning kompleks rivojlanishini – kognitiv, emotsional, ijtimoiy va nutqiy sohalarda barqaror o‘sishini ta’minlaydigan integratsiyalashgan pedagogik mexanizmdir. Ushbu faoliyatning samaradorligi reabilitatsion jarayonning metodik izchilligi, komponentlararo uzviy bog‘liqligi va individual yondashuvga bevosita bog‘liqdir [6].

Bunday korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

1 Audiopedagogik ishlar. Audiopedagogik yo‘nalish reabilitatsiya tizimining markaziy boshlang‘ich komponenti hisoblanadi. U bola eshituv tizimining sun’iy stimulyatsiyasi, ya’ni implant orqali yetkazilayotgan tovush signallari sharoitida tabiiy eshituv reflekslarini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur komponentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- implant orqali qabul qilinayotgan eshituv signalini idrok etish va u bilan ishlash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish;
- sensor-motorik reaksiyalarni rivojlantirish orqali eshituv tajribasini mustahkamlash (masalan, tovushga bosh burish, e’tibor jamlash, sezgirlikni faollashtirish);
- fonematik va fonetik eshituvni rivojlantirish, ya’ni yaqin tovushlarni farqlash va nutqiy birliklarni tanib olish;
- eshitilgan nutq signallarini og‘zaki talaffuz va artikulyatsiya orqali faollashtirish, shuningdek, passiv lug‘atni faol ishlatishga o‘rgatish.

Audiopedagogik faoliyatning samaradorligi ota-onalar va oilaning pedagogik jarayonga jalb qilinishi bilan mustahkamlanadi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash, bolaning eshituv-moslashuv jarayonida motivatsiyani oshirish va psixologik barqarorlikni yaratish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi.

Korreksion ishning asosiy komponentlari

1 Audiopedagogik ishlar. Audiopedagogik jarayonda quyidagi metodik yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega:

- **tovushlar differensiatsiyasi va identifikatsiyasi** – bolaga atrofdagi tovushlarni farqlash, ularni tanish va manbasini aniqlashga o‘rgatish;
- **eshituv xotirasini rivojlantirish** – tovushlar ketma-ketligini eslab qolish, gaplarning akustik strukturasi ustida ishlash;
- **multimodal yondashuvlar** – eshitish bilan birgalikda ko‘rish, harakat va sezgi orqali eshituv idrokini mustahkamlash;
- **didaktik o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar** – tovushlarni jonli, mazmunli va hissiy jihatdan boy kontekstda o‘rganishga yo‘naltirilgan metodik vositalar.

Audiopedagogik mashg‘ulotlar boshlang‘ich davrda individual tarzda, keyinchalik esa kichik guruh shaklida olib boriladi. Ushbu komponent bolaning sun’iy eshitish vositasi orqali real akustik muhitga integratsiyalashuvini ta’minlashga xizmat qiladi va postimplantatsion eshituv-moslashuv jarayonining tayanch asosini tashkil etadi.

2 Logopedik korreksiya. Koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya davrida bolada eshitilgan tovushlarni nutqiy birliklarga aylantirish – og‘zaki nutqni o‘zlashtirishning markaziy jarayoni hisoblanadi.

Logopedik ishlar koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya jarayonining markaziy komponenti bo‘lib, u nafaqat fonematik eshituvni rivojlantirish, balki og‘zaki nutqning barcha bosqichlarini tizimli shakllantirishga yo‘naltiriladi. Ushbu bosqichda amalga oshiriladigan asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- **fonetik-fonematik tahlil va sintez** – tovushlar tarkibini anglash,

so‘zlarni segmentlash va yaqin fonemalarni aniq farqlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- **artikulyasion apparat bilan ishlash** – tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun lab, til, tanglay va boshqa artikulyatsion harakatlarni faollashtirish;
- **grammatik strukturani o‘rgatish** – so‘z turkumlari, gap tuzilmasi, ot-birikmalar, so‘z yasalishi va so‘z tartibini o‘zlashtirish;
- **leksik zaxirani boyitish** – bolalarga hayotiy, mavzuli va kontekstli so‘zlar hamda iboralarni o‘rgatish;
- **dialogik va monologik nutqni rivojlantirish** – savol-javob, izohli hikoya, rasm asosida voqea aytish kabi nutqiy faoliyatlarni o‘zlashtirish.

Logopedik mashg‘ulotlar faqat eshitishga asoslanmaydi; ular ko‘rish-eshitish nutqi (vizual qo‘llab-quvvatlangan eshituv) bilan integratsiyalashgan holda olib borilganda samaradorlik sezilarli darajada oshadi. Shu tarzda bola eshituv va og‘zaki nutqni parallel ravishda rivojlantiradi, nutqiy kommunikatsiya ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash

Koxlear implantatsiya jarayoni nafaqat fiziologik, balki psixologik jihatdan ham murakkab moslashuvni talab qiladi. Bola yangi, ilgari noma’lum eshituv tajribasiga duch keladi, bu esa uning emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli postimplantatsion reabilitatsiyada quyidagi psixologik-pedagogik yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- **emotsional barqarorlikni ta’minlash** – bolaning stress va xavotir darajasini nazorat qilish, yangi eshituv tajribasiga moslashuvini rag‘batlantirish;
- **motivatsion qo‘llab-quvvatlash** – implantdan foydalanish va reabilitatsiya mashg‘ulotlariga faol ishtirokni rag‘batlantirish;
- **ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish** – ota-ona, pedagog va tengdoshlar bilan samarali o‘zaro aloqani shakllantirish;
- **individual psixopedagogik yondashuv** – bolaning kognitiv, emotsional va shaxsiy xususiyatlariga moslashgan reabilitatsion strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish [7].

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash bolalarning reabilitatsion jarayonda muvaffaqiyatli ishtirokini va eshituv-nutqiy kompetensiyalarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Koxlear implantatsiya jarayoni bolaga yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan eshituv tajribasini beradi. Bu esa uning emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois postimplantatsion reabilitatsiyada quyidagi psixologik-pedagogik yo‘nalishlar ustuvor ahamiyatga ega:

- **eshitishga bo‘lgan ishonchni shakllantirish** – bola implant orqali kelayotgan tovushlarni xavfsiz, foydali va qiziqarli deb qabul qilishi uchun pedagogik-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- **o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy qabulni oshirish** – shaxsiy muvaffaqiyatlarga asoslangan motivatsiyani rag‘batlantirish;
- **emotsional barqarorlikni ta’minlash** – qo‘rquv, stress va rad etish holatlarini engish uchun relaksatsiya va terapiyaviy metodlarni qo‘llash;
- **shaxslararo muloqotni rivojlantirish** – o‘yin, rolli ssenariylar, mimika, imo-ishoralar orqali bolaning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish.

Ushbu komponentda pedagog, psixolog va ota-onaning uzviy hamkorligi asosiy rol o‘ynaydi.

Oila bilan integratsion ishlar. Oila, ayniqsa ona, koxlear implantli bolaning reabilitatsiyasida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli pedagogik jarayon doirasida oilani faqat “yordamchi” emas, balki “teng sherik” sifatida ko‘rish muhimdir.

Oila bilan integratsion ishlarga quyidagilar kiradi:

- **reabilitatsiya jarayonining mazmuni haqida bilim berish** – implant tuzilmasi, eshituv fiziologiyasi, rivojlanish bosqichlari;
- **uy sharoitida pedagogik muhit yaratish** – ovozli o‘yinlar, eshituv refleksini rag‘batlantiruvchi faoliyatlar;
- **ota-onalar uchun trening va seminarlar** – maxsus metodika, vizual qo‘llanmalar, audio-mashqlar bilan ishlash ko‘nikmalari;
- **psixologik yordam** – ota-onaning xavotir, umidsizlik yoki ortiqcha talablarga qarshi professional maslahatlar.

Oila va pedagog jamoasi o‘rtasidagi faol muloqot bolada barqaror va sog‘lom rivojlanish asosini yaratadi.

Reabilitatsiya davrlari. Koxlear implantatsiyadan so‘ng bolalar bilan olib boriluvchi eshitish va nutqiy reabilitatsiya ishlarini amaliyotda quyidagi bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

> ***Koxlear implantli bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar – logopedlar, surdopedagoglar, audiopedagoglar va psixologlar tomonidan olib boriladigan reabilitatsion jarayon kompleks, individual va tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi shart.***

1 Moslashuv davri

- **Davr davomiyligi:** bola holatiga qarab 1 oydan 3 oygacha.
- **Maqsad:** implant va bolaning organizmi o'rtasidagi moslashuvni ta'minlash, jarrohlikdan keyingi fiziologik va psixologik adaptatsiyani qo'llab-quvvatlash.
- **Ishlar:** ota-ona va bolani korreksion-pedagogik jarayonga tayyorlash, nutq prosessorini yoqishga tayyorlash, eshituv refleksi va nonutqiy signalni farqlashga o'rgatish, oilada eshitish va nutqiy reabilitatsiyani uy sharoitida davom ettirish uchun shaxsiy reja tuzish.

2 Start davri

- Koxlear implantning elektrod qismi surdologik markaz mutaxassisi tomonidan ishga tushiriladi.
- **Maqsad:** bolaning tashqi olamni sezishi va unga munosabat bildirishini nazorat qilish, implantni sozlash va dinamik monitoring.

Surdopedagogning vazifalari:

- **1.** Nutq va ovoz ustida ish: tovushlarni farqlash, atrofdagi ovozlarga diqqatni jalb qilish, tovush manbasini aniqlash.
- **2.** Eshituv tasavvurlarini umumlashtirish: uy va maktab muhitidagi ovozlar, oila a'zolari va hayvonlar ovozlarini tanish.
- **3.** Ota-onalarni maishiy muloqot sharoitida bolaning eshitish qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish.

Nutqni rivojlantirish: nafas va ovoz nazorati, artikulyatsion mashqlar, logopedik massaj va o'z nutqini eshitib, nazorat qilish.

3 Asosiy davr

Yo'nalishlar:

- **1.** Nutqni eshitib farqlashni rivojlantirish.
- **2.** O'z nutqini eshitib idrok etish va murojaatlarni tushunish.
- **3.** Bog'lanishli nutqni eshitish, tushunish va matnlarni idrok etishni rivojlantirish.

Reabilitatsiyada muvaffaqiyat omillari. Koxlear implantatsiya natijalarining samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- **1.** Bola fiziologik holatining barqarorligi (kamqonlik, surunkali kasalliklar, allergiyaning yo'qligi).
- **2.** Eshituv apparati holati va quloq strukturasi.
- **3.** Bosh miya faoliyati (jarohatlar yoki organik buzilishlarning yo'qligi).
- **4.** Bolaning psixologik holati va ijtimoiy moslashuvi.
- **5.** Oila e'tibori va pedagogik hamkorlik.

Shu bilan birga, reabilitatsiya jarayoni bolaga individual, oilaviy va psixopedagogik yondashuvlar bilan olib borilganida maksimal natija beradi. Koxlear implant nafaqat eshitishni tiklaydi, balki bolaning nutqiy, kognitiv va sotsial rivojlanishiga zamin yaratadi, uning jamiyatga to'liq integratsiyasini ta'minlaydi.

Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar tizimli, ko'p komponentli va integrativ yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon nafaqat eshituv funksiyalarini tiklashga, balki bolaning nutqiy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini kompleks ta'minlashga qaratilgan [8].

> ***Koxlear implantatsiyadan so'nggi reabilitatsiya jarayonining markaziy yo'nalishi bolalarning eshituv imkoniyatlarini funksional darajada faollashtirish, tovushlarni idrok etish va nutqiy faoliyatga jalb qilish orqali ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashdir.***

Xulosa qilib aytganda, koxlear implantatsiya va undan keyingi surdopedagogik reabilitatsiya bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida, intellektual va nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bo'lajak maxsus pedagoglar reabilitatsiya komponentlarini chuqur tushunishi va amaliyotda moslashtirib qo'llay olish kompetensiyasiga ega bo'lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Григорьева О.Г. Логопедическое сопровождение при кохлеарной имплантации. – Санкт-Петербург, 2012.

2. Филиппова Т.Б. Формирование и развитие слухового и речевого восприятия у детей с кохлеарными имплантами. – Москва, 2016.

3. Ахутина Т.В., Ямбург Н.Н. Нейропсихология слуха и речи. – Москва, 2010.

4. Nikolopoulos T.P., O'Donoghue G.M., Archbold S. Cochlear Implantation in Children: Long-Term Outcomes. // International Journal of Pediatric Otorhinolaryngology, 2004.

5. Yoshinaga-Itano C., Sedey A.L., Coulter D.K. Language Development in Children with Early Cochlear Implantation. // Journal of Deaf Studies and Deaf Education, 2010.

6. Королева И.В. Слухоречевая реабилитация глухих детей с кохлеарными имплантами. – СПб., 2005.

7. Королева И.В. Прогноз эффективности слухоречевой реабилитации после кохлеарной имплантации у детей младшего возраста. // Ж.: Дефектология, 2002.

8. Raximova X.S. Koxlear implantli bolalar bilan logopedik ish. // O'quv qo'llanma. – Farg'ona, 2021.